

ichiga olgan holda joriy narxlarda 35 435 000 (o'ttiz besh million to'rt yz o'ttiz bysh ming ) ni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

obyektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### IV. Pudratchining majburiyatlari

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga I -ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

I-ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha obyektning foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### V. Buyurtmachining majburiyatlari

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga I-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 203430 на приобретение Дехконобод тумани 62-сонли мактаб биносини таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 13.12.2022

Время рассмотрения 01.12.2022 17:17

Конкурсная комиссия Дехконобод туман Халк таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

|                              |                                   |                           |                    |
|------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|--------------------|
| <b>Председатель комиссии</b> | YUSUPOV BAXTIYOR MAVLONOVICH      | Халк таълим бўлими мудири | Халк таълим бўлими |
| <b>Секретарь комиссии</b>    | QAYUMOV NURMUXAMED YULDASHOVICH   | Мутахассис                | Халк таълим булими |
| <b>Член комиссии</b>         | IBRAGIMOV MAVLON MENGLIMURODOVICH | Курилиш буйича мутахассис | Халк таълим булими |
| <b>Член комиссии</b>         | DO'SANOV DAVRON ABDIRAHMATOVICH   | Шартнома булими бошлиги   | Халк таълим булими |
| <b>Член комиссии</b>         | ODINAYEV XAYRULLA JUMAYEVICH      | Бош хисобчи               | Халк таълим булими |
| <b>Член комиссии</b>         | XAZRATOV UMID OMONQULOVICH        | Мутахассис                | Халк таълим булими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 13.12.2022 года № лота 203430.

Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Услуга по текущему ремонту зданий |
|--------------------------------------|-----------------------------------|
| Подробное описание                   | 62-мактабни таъмирлаш             |
| Количество товара                    | 1.00                              |
| Единица измерения                    | усл. ед                           |
| Цена товара (услуги) за единицу      | 36 443 000.00                     |
| Стартовая сумма                      | 36 443 000.00                     |
| Валюта                               | UZS                               |

| Наименование товара (работы, услуги) | Услуга по текущему ремонту зданий |
|--------------------------------------|-----------------------------------|
| Подробное описание                   | 62-мактабни таъмирлаш             |
| Количество товара                    | 1.00                              |
| Единица измерения                    | усл. ед                           |
| Цена товара (услуги) за единицу      | 857 000.00                        |
| Стартовая сумма                      | 857 000.00                        |
| Валюта                               | UZS                               |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Критерияга Курилиш категориясида Рейтинг даражаси эга ташкилот булиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 25        | 35353000           | 20             | Экспертная |            |         |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 25        | Рейтинг даражаси   | 23             | Экспертная |            |         |

Критерий №2 Кафолат хати булиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 25        | 35353000           | 20             | Экспертная |            |         |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 25        | Кафолат хати       | 22             | Экспертная |            |         |

Критерий №3 Банк ва солиқдан карзи йуклиги тугрисида

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника                       | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|--|----------------|------------|------------|---------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 25        | 35353000                                 | 20             | Экспертная |            |         |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 25        | Банк ва солиқдан карзи йуклиги тугрисида | 23             | Экспертная |            |         |

Критерий №4 Машина ва механизмлар рўйхати ва ижара шартномаси

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника            | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|-------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 25        | 35353000                      | 20             | Экспертная |            |         |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 25        | Машина ва механизмлар рўйхати | 20             | Экспертная |            |         |

Критерий №5 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома (Низом ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари, СТИР рақамлари)

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника  | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 25        | 35353000  | 20             | Экспертная |            |         |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 25        | Низом ва гувохномадан, таъсисчи ва рахбарнинг паспорт нусхалари, СТИР рақамлари | 22             | Экспертная |            |         |

Финансовое значение

Наименование товара: Услуга по текущему ремонту зданий

| Ценовые предложения            |                       |                    |                                  | Порядок оценки ценовых предложений                             |                         |
|--------------------------------|-----------------------|--------------------|----------------------------------|--|-------------------------|
| Наименование участника         | Стартовая сумма (UZS) | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов | Итоговое значение (UZS) |
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 36 443 000.00         | 34 553 000.00 UZS  | 34 553 000.00                    | 00.00  | 34 553 000.00           |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 36 443 000.00         | 34 620 850.00 UZS  | 34 620 850.00                    | 00.00  | 34 620 850.00           |

Наименование товара: Услуга по текущему ремонту зданий

| Ценовые предложения            |                       |                    |                                  | Порядок оценки ценовых предложений                             |                         |
|--------------------------------|-----------------------|--------------------|----------------------------------|--|-------------------------|
| Наименование участника         | Стартовая сумма (UZS) | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов | Итоговое значение (UZS) |
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 857 000.00            | 800 000.00 UZS     | 800 000.00                       | 00.00  | 800 000.00              |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 857 000.00            | 814 150.00 UZS     | 814 150.00                       | 00.00  | 814 150.00              |

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 37 300 000.00 UZS

| Наименование участника         | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов | Общее значение (UZS) | Дата предложения    | Оценка стоимости (балл) |
|--------------------------------|--------------------|----------------------------------|------------------------|--|----------------------|---------------------|-------------------------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 35 353 000.00 UZS  | 35 353 000.00                    | 00.00                  | 00.00  | 35 353 000.00        | 02.12.2022 21:03:42 | 30                      |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 35 435 000.00 UZS  | 35 435 000.00                    | 00.00                  | 00.00  | 35 435 000.00        | 08.12.2022 20:21:27 | 29.93058                |

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

| Наименование участника         | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|--------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| <b>ЧП INTER SAXOVAT BARAKA</b> | 56                              | 30                             | 86            |
| <b>ЧП TUROB</b>                | 61.6                            | 29.93058                       | 91.53058      |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 203430 от 13.12.2022 года на приобретение Дехконобод тумани 62-сонли мактаб биносини таъмирлаш определила победителем:

ЧП TUROB  
201582694

и резервный исполнитель: ЧП INTER SAXOVAT BARAKA ( 301765835 )

Проголосовали

| Комиссия                     | Ф.И.О.                            | Голосование | Комментарии |
|------------------------------|-----------------------------------|-------------|-------------|
| <b>Председатель комиссии</b> | YUSUPOV BAXTIYOR MAVLONOVICH      | Согласен    |             |
| <b>Член комиссии</b>         | IBRAGIMOV MAVLON MENGLIMURODOVICH | Согласен    |             |
| <b>Член комиссии</b>         | DO'SANOV DAVRON ABDIRAHMATOVICH   | Согласен    |             |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**203430 лот юзасидан шакланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилади.

Муҳокама тугаган сана:

20.12.2022 17:15

Комиссия раиси:

YUSUPOV BAXTIYOR MAVLONOVICH

20.12.2022 йил

Комиссия раиси:  
Комиссия аъзолари:

М. Ибрагимов  
Х.Одинаев  
Б.Юсупов  
Д.Дўсанов  
У.Хазратов

**Кун тартибдаги масала.**

Деҳқонобод туман халқ таълими бўлимига қарашли мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш мақсадида қурилиш ташкилотини танлаб олиш ва биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш тўғрисида.

**Кун тартибда қуриладиган масала:**

Деҳқонобод туман халқ таълими бўлимига қарашли мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун 2022 йил декабр ойида шартнома килиш ва шартномани тасдиқлаш тугрисида.






Комиссия танлов тендир қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар куйидагича:

Танлов конкурс буйича 2022 йил 13 декабр кунда лот № 203430 сонли протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан қатнашди ва энг юкори балл « ЧП TUROB "олди ва 2 кун муҳокамада куйилди ҳамда бошка эътирозлар булмагандан кейин " ЧП TUROB " х/к билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:**

1. «ЧП TUROB» х/к ғолиб деб топилсин.
2. « ЧП TUROB » х/к корхонаси томонидан тавсия этилган мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун шартнома тузилди ва қурилиш ишлари буйича мутахасис М.Ибрагимовга юклатилсин .
3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош ҳисобчи Х.Одинаевга юклатилсин.

Комиссия раиси:  
АЪЗОЛАРИ:

 М. Ибрагимов  
 Х. Одинаев  
 Д. Дўсанов  
 У. Хазратов  
 Б. Юсупов

## Obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir Namunaviy pudrat shartnomasi

20«12»2022 yil.

514-4-57-XT/2022-son

Dehqonobod Tuman Xalq ta'limi nomidan (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) harakat qiluvchi ma'sul xodim B.Yusupov bir tomondan va "ЧП ТУРОБ"Х/К nomidan (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) harakat qiluvchi X.Feruz ikkinchi tomondan, 62-maktab binosini joriy tamirlash to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar.

### Tariflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga Yuristkonsult Mirzobek (loyihaning nomi) loyihada ko'zda tutilgan obyektни foydalanishga tayyor holda qurish bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori ( 08.09.2022dagi 15-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z



funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### VI. Ishlarni bajarish muddatlari

##### 10. Shartnoma:

milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda – tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda – shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 2 kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

#### VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 10 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 5 foizdan) bo'lgan holda avans o'tkazadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (–ilova).

16. Obyektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 85 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va obyekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

obyekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab 1 oy mobaynida - ishlar qiymatining kamida 80 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin-ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

18. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obyekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

19. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

#### VIII. Ishlarni bajarish

20. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga

oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

21. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

22. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

23. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

24. Pudratchi obyektida ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

25. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

27. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va obyektни privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

28. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

29. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

30. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

31. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

32. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

33. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

34. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftoriga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

35. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq

berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

36. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

37. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

38. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

#### IX. Ishlarni qo'riqlash

39. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

40. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk obyekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

#### X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

41. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

42. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

43. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## XI. Qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish

44. Qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

45. Obyektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

46. Pudratchi qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

47. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

## XII. Kafolatlar

48. Pudratchi:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va obyektning foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

obyektning foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

49. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Obyekt tomonining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

50. Agar obyektning foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

51. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davraxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

## XIII. Shartnomani bekor qilish

52. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

54. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

55. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

56. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

57. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

58. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

59. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

60. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

61. Pudratchi obyektни o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

62. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida obyektни qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

63. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

64. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### XV. Nizolarni hal etish tartibi

65. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### XVI. Alohida shartlar

66. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

67. Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchunchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

68. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

69. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

70. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

71. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

72. Shartnomang amal qilish muddati: 2022-yil 31-dekabrgacha.

73. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

#### XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Pudratchi:

Buyurtmachi

""Qashqadaryo ""ЧП TUROB""X/K

Manzil: QARSHI

Bank:

H/R: 20208000300328294001

STIR:201582694

Dehqonobod tuman Xalq ta'limi

bo'limiga qarashli maktablar

Manzil: Dehqonobod tuman, istiqlol MFY

H/R: 100022860102127092100075143

STIR: 2010047124

Bank: AGRO Bank

Telefon: 99-102-00-30


MFO: 00158

Telefon: 612-12-52




Rahbar: X.Feruz

imzo



Rahbar: B. Yusupov

imzo

|  |  |                              |
|--|--|------------------------------|
|  | Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang. |                              |
|  | Imzolovchi F.I.SH.   | BAXTIYOR YUSUPOV MAVLONOVICH |
|  | Imzolangan sana  | 20.12.2022 11:21             |
|  | Hujjat kodi  | CW7641018722                 |
|  | Hulosa kodi  | SE4542335316                 |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

SE4542335316

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **62-maktab**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Dehqonobod tumani xalq ta'limi tomonidan 20.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Dexqonobod tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:



M.E.HAYITOV

20.12.2022





20.12.2022 даги

Туроб хусусий савдо фирмаси ва Дехқонобод туман ХТБ (Центр) ўртасида 35435000,00 сўм умумий суммага тузилган 514-4-57-ХТ/2022-сон - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 075  
Шахсий газна ҳисобварақ 100022860102127092100075143

сўмда

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури**<br>(бюджет таснифининг тегишли коди) |  |  | Жами                 |
|---------------------|--|--|--|----------------------|
|                     | 4239000  |  |  |                      |
| Январь              |  |  |  |                      |
| Февраль             |  |  |  |                      |
| Март                |  |  |  |                      |
| Апрель              |  |  |  |                      |
| Май                 |  |  |  |                      |
| Июнь                |  |  |  |                      |
| Июль                |  |  |  |                      |
| Август              |  |  |  |                      |
| Сентябрь            |  |  |  |                      |
| Октябрь             |  |  |  |                      |
| Ноябрь              |  |  |  |                      |
| Декабрь             | 35 435 000,00  |  |  | 35 435 000,00        |
| Жами йил бўйича     | <b>35 435 000,00</b>                                   |  |  | <b>35 435 000,00</b> |

Жами 35435000,00 сўм

Ўттиз беш миллион тўрт юз ўттиз беш минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 10630500,00 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан \_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойида тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан вазначилик бўлинимасига икки нусхада такдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_ % жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



5-Handwritten signature  
(имзо)

Юсупов Бахтиёр Мавлонович

Ф И Ш

Буюртмачи болиққалтери

Handwritten signature  
(имзо)

Одинаев Хайрулла Жумаевич

Ф И Ш

Вазначилик бўлинимасининг  
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.